



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19689257>

## Boshlang'ich sinf o'quvchilariga asos va qo'shimchalarni o'rgatish usullari

**Abduvaliyeva Nodira Alisherovna –**

Farg'ona davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: [nodiraxonabduvaliyeva@gmail.com](mailto:nodiraxonabduvaliyeva@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-9824-4622>

**Ziyobiddinova Sarvinozxon Azizjon qizi –**

Farg'ona davlat universiteti talabasi

E-mail: [ssoliyeva122@gmail.com](mailto:ssoliyeva122@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga asos va qo'shimchalarni o'rgatishning samarali metodlari ilmiy-amaliy yondashuv asosida yoritilgan. Tadqiqotda bosqichma-bosqich o'qitish, ko'rgazmali vositalardan foydalanish, o'yin texnologiyalari, matn asosida tahliliy ishlash, morfologik modellardan foydalanish va differensial yondashuv kabi metodlar tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida so'z tarkibini o'zlashtirish jarayonining samaradorligi misollar orqali asoslab berilgan. Maqola boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari, metodistlar va ona tili fanidan dars beruvchi pedagoglar uchun amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi.*

***Kalit so'zlar:** asos, qo'shimcha, so'z tarkibi, boshlang'ich ta'lim, ko'rgazmali metod, o'yin texnologiyalari, morfologik tahlil, differensial yondashuv, pedagogik texnologiya, grammatik ko'nikma.*

## Начальные методы обучения учащихся начальных классов корню и аффиксам

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются эффективные методы обучения учащихся начальной школы основам и суффиксам на основе научно-практического подхода. В исследовании анализируются такие методы, как поэтапное обучение, использование наглядных пособий, игровые технологии, текстоаналитическая работа, применение морфологических моделей и дифференцированный подход. Также на примерах доказываемся эффективность*

*процесса усвоения лексики с использованием современных педагогических технологий. Статья служит практическим руководством для учителей начальной школы, методистов и педагогов, преподающих предмет родного языка.*

**Ключевые слова:** *суффикс, структура слова, начальное образование, демонстрационный метод, игровые технологии, морфологический анализ, дифференциальный подход, педагогические технологии, грамматические навыки.*

## **Methods of teaching roots and affixes to primary school students**

**Annotation.** *This article discusses effective methods for teaching primary school students the basics and suffixes based on a scientific and practical approach. The study analyzes methods such as step-by-step teaching, the use of visual aids, game technologies, analytical work based on the text, the use of morphological models, and a differential approach. Also, the effectiveness of the process of mastering vocabulary using modern pedagogical technologies is substantiated through examples. The article serves as a practical guide for primary school teachers, methodologists, and pedagogues teaching the subject of the native language.*

**Keywords:** *base, suffix, word structure, primary education, demonstration method, game technologies, morphological analysis, differential approach, pedagogical technology, grammatical skills.*

### **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, o'quvchilarning sifatli bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qator chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning "Ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar nufuzini yuksaltirish to'g'risida"gi qarorlari, "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" tamoyili asosidagi dasturlar, boshlang'ich ta'lim standartlarining yangilanishi va zamonaviy o'quv metodikalari joriy etilishi bu yo'nalishning ustuvorligini yana bir bor tasdiqlaydi. 2021–2024-yillarda o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqilib, kompetensiyaga asoslangan yondashuv tatbiq qilindi, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yangicha darslik va qo'llanmalar yaratildi, o'qituvchilarga malaka oshirishning kredit-modul tizimi joriy qilindi. Bu islohotlar ta'lim mazmunini zamon talablari bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarni ongli o'qish, mustaqil fikrlash va grammatik bilimlarni amalda qo'llay olish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Shu jihatdan, so'z tarkibini, xususan asos va qo'shimchalarni o'rgatish jarayoni ham yangi metodik yondashuvlar orqali takomillashtirilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan yangilashga qaratilgan strategik hujjat hisoblanadi. Konsepsiyada o'quv jarayonini raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilarning malaka darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash, o'quv dasturlarini kompetensiyaga yo'naltirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur strategiya doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darsliklar qayta ishlab chiqildi, o'quv jarayoniga o'yinli va interfaol metodlarni keng tatbiq etish, ona tili ta'limida morfologik tahlil, so'z yasalishi va so'z tarkibini o'rgatishga doir metodik qo'llanmalar takomillashtirildi. Konsepsiya, shuningdek, o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirishni asosiy maqsadlardan biri sifatida ko'rsatadi. Bu jarayon ona tili ta'limida, xususan

asos va qo'shimchalarni o'rgatish metodikasini yangicha pedagogik yondashuvlar bilan boyitishni taqozo etadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida so'z tarkibini o'rgatish – o'quvchilarning grammatik savodxonligini shakllantirishning poydevoridir. Asos va qo'shimchalarni farqlay olish o'quvchilar nutqini ongli qurish, so'z yasashini tushunish, to'g'ri yozuv ko'nikmasini shakllantirish uchun zarur. Tadqiqotchilar (A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov) ta'kidlaganidek, so'z tarkibini o'zlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich va ko'rgazmali metodlarga tayanilgan holda tashkil etilganda samaradorlik sezilarli ravishda ortadi. Ushbu maqolada aynan boshlang'ich sinf o'quvchilariga asos va qo'shimchalarni o'rgatish bo'yicha eng samarali, ilmiy jihatdan asoslangan metodlar yoritiladi.

K.Qosimova va S.Matchonovning “Ona tili o'qitish metodikasi” nomli qo'llanmasida morfemaga quyidagicha ta'rif berilgan:

Morfema – so'zning eng kichik, bo'linmaydigan ma'noli qismi. Morfema ikki turga bo'linadi:

1. O'zak morfema — so'zda albatta qatnashadigan va leksik ma'no anglatadigan morfema.

2. Affiksial morfema - mustaqil holda leksik ma'no anglatmay, so'zning leksik va grammatik ma'nolari shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema. Masalan, gullarni, gulla so'zlaridagi gul — o'zak morfema, -lar, -ni, -la affiksial morfemadir.

*Affikslar (qo'shimchalar) ikki turga bo'linadi, ular:*

1. *So'z yasovchi qo'shimchalar.* Ular so'zning leksik ma'nosini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, bog'bon, paxtakor, gulzor, ishchi so'zlaridagi -bon, -kor, -zor, -chi so'z yasovchi affikslardir.

2. *Shakl yasovchi qo'shimchalar.* Bu qo'shim chalar so'zlarni grammatik jihatdan shakllantirib, turli grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, maktablarimizni so'zida -lar, -imiz, -ni shakl yasovchi qo'shim chalar bo'lib, -lar ko'plik ma'nosini, -imiz egalikning I shaxs ko'plik ma'nosini, -ni tushum kelishigi ma'nosini ifodalaydi.

Morfemalarning qo'shilishi bir-biriga ta'sir qiladi, bundan tashqari, ko'pgina o'zak va so'z yasovchi qo'shimchalar ko'p ma'noli. Shunga qaramay, ko'p so'zlarning leksik ma'nosini uning morfemik tarkibiga qarab aniqlash qiyin, bu maqsadda so'zni morfemalarga ajratishdan foydalanishga to'g'ri keladi. O'quvchilar so'zning morfemik tarkibini va so'z yasashini o'rganishlariga qarab, so'zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar. Ular yasama so'zlarning leksik ma'nosini so'zlarning semantik o'xshashligiga qarab bilib oladilar.


### **NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

Tajriba davomida asos va qo'shimchalarni o'rgatish uchun quyidagi usullar ishlab chiqildi va darsliklar tahlil qilindi:

1. Asosiy tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi: Boshlang'ich sinf o'quvchilari tahliliy fikrlash darajasi yetarlicha shakllanmagan bo'ladi. Shu sababli, asos va qo'shimcha haqidagi bilim asta-sekinlik bilan, sodda misollar asosida berilishi ta'kidlanadi.

- ✓ So'zni bo'laklarga ajratmasdan, umumiy ma'nosini tushuntirish.
- ✓ Ma'nosi o'zgarmas qismni (asosni) ajratish.
- ✓ Qo'shimcha qo'shilganda so'z shakli va ma'nosidagi o'zgarishni ko'rsatish.
- ✓ Yasalgan so'zlar misolida qo'shimchaning vazifasini tushuntirish.

Bu jarayon “yaqin rivojlanish zonasi” tamoyiliga mos bo'lib, bolalar uchun tushunarli pog'onalarda bilim berishni ta'minlaydi.



2. Ko'rgazmali vositalardan foydalanish darsni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi: Ilmiy tadqiqotlar (S.Nishonova, L.Vygotskiy) ko'rsatganidek, yosh o'quvchilar mavhum grammatik tushunchalarni ko'rgazmalilik orqali tezroq o'zlashtiradi. Quyidagi ko'rgazmali vositalarni dars jarayonida foydalanish samarali hisoblanadi.

Misol uchun rangli kartochkalardan foydalanishda asos qizil rangda, qo'shimchalar ko'k rangda ko'rsatiladi: kitob + lar, gul + lar + ni.

Magnit taxtadagi bo'linuvchi so'zlardan foydalanishda har bir qism magnit bo'lakka yoziladi va o'quvchi uni ajratish yoki qo'shish orqali amaliy mashq bajaradi.

3. Amaliy o'yin metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarni darsga qiziqishini orttirish mumkin. O'yin – boshlang'ich ta'limning eng samarali usullaridan biridir. Olimlar (Piaget, Elkonin, Z.R. Boshniqova) fikricha, o'yin jarayoni bolalarda ilmiy tushunchalarni “ichki nutq” darajasiga ko'taradi. Quyida darsda qo'llash mumkin bo'lgan o'yinlardan namunalar berilgan.

“So'z yasash zanjiri” o'yinida o'quvchilar berilgan asoslarga turli qo'shimchalar qo'shib yangi so'z yasaydilar.

Masalan: o'qi–vchi–lar–imiz.


“Top o'zing” o'yinida matndan asos va qo'shimchalar topiladi. Asos topgan o'quvchi ball oladi, qo'shimcha topgan o'quvchi qo'shimcha ball oladi.

“Qo'shimchani joyiga qo'y” o'yinida o'qituvchi asosni beradi, o'quvchi esa mos qo'shimchani tanlaydi.

4. Matn asosida ishlash jarayonida tahliliy metodlardan foydalanish o'quvchilarda tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Matnli mashqlar o'quvchilarda grammatik tahlil ko'nikmasini shakllantiradi. Metodik adabiyotlarda (N. Narzieva, T. Qudratova) ta'kidlanishicha, matn asosidagi tahlillar o'quvchining mustaqil fikrlash darajasini oshiradi.

Mashq turlariga quyidagilarni misol qilish mumkin:


- Matndan asos va qo'shimchali so'zlarni topish.
- Qo'shimcha olib tashlanganda so'z ma'nosining o'zgarishini aniqlash.
- Asosdan yangi so'zlar yasash (o'quvchi ijodkorligini oshiradi).



5. Morfologik jadval va grafik modellardan foydalanish orqali ta'lim berish bilimni barqarorlashtiradi.

Morfemik daraxt metodida bir shoxga asos yozilsa, undan chiqqan shoxchalarga qo'shimchalar yoziladi: gul → gullar → gullarimiz shaklida bo'ladi.

Asos–qo'shimcha jadvalida o'quvchilar har bir yangi qo'shimcha bilan so'zning qanday o'zgarishini jadvalda ko'rsatadi.




6. Differensial ta'lim usullaridan foydalanish darsni har bir o'quvchi yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bir xil tezlikda o'qimaydi. Shuning uchun o'qituvchi metodlarni o'quvchilar qobiliyatiga moslashtirishi zarur. Misollar orqali ko'rib chiqamiz:

Kuchli o'quvchilarga yasalgan so'zlar bilan murakkabroq matn tuzish, o'rtacha o'quvchilarga asos va qo'shimchani ajratish, qiyinchilikka duch keluvchilarga tayyor kartochkalardan tanlash kabi vazifalar beriladi.

Bu yondashuv ta'lim samaradorligini 30–40% ga oshirishi bo'yicha ilmiy ma'lumotlar mavjud (pedagogik kuzatuvlar natijasi).

7. Texnologik metodlardan foydalanish orqali mavzu chuqur o'zlashtiriladi. Zamonaviy boshlang'ich ta'limda interfaol texnologiyalar qo'llanilishi ta'lim jarayonini qiziqarli qiladi. Misol uchun, "INSERT" texnikasi yordamida o'quvchi bilgan va bilmagan qo'shimchalarni belgilaydi; "Baliq skeleti" modeli orqali qo'shimchaniing vazifasi umumlashtiriladi; "Klaster" usuli orqali asosdan yasaladigan so'zlarning guruhlari tuziladi.



## XULOSA

Asos va qo'shimchalarni o'rgatish – boshlang'ich sinf ona tili ta'limining muhim bo'g'ini bo'lib, bu jarayonni ko'rgazmali, bosqichma-bosqich, o'yinli, tahliliy hamda individual yondashuv asosida tashkil etish samarali natija beradi. Ilmiy-metodik adabiyotlar tavsiyalari, psixolingvistik tadqiqotlar va pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi so'z tarkibini amaliy mashqlar orqali o'zlashtirsa, grammatik bilimlar mustahkam, ongli hamda nutqda faol qo'llanadigan bo'ladi. Aynan shu metodlar uyg'unligi boshlang'ich sinf

o'quvchilarida asos va qo'shimchalar bo'yicha to'liq, puxta va barqaror bilimlarni shakllantiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son
2. "Ona tili o'qitish metodikasi"(Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik):K. Qosimova, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. – T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
3. Baynazarova D. D., Toirova M. E. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. II qism. /Baynazarova D. D., M E. Toirova - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. - 88 b.
4. Baynazarova D. D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. III qism. / Baynazarova D. D.-Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. - 96 b.
5. MahmudovN., To'xliyevB. "O'zbek tilini o'rganamiz" rasmi lug'at.
6. O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamroyev. "Ona tili didaktikasi" –T: "Yangi asr avlodi" 2005. B.288.
7. [www. lex.uz](http://www.lex.uz)
8. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
9. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)